

ZAMONAVIY MEDIADA TAHLILIIY MATERIALLAR TAYYORLASHDA  
TANQIDIY YONDASHUVNING NAMOYON BO'LISHI

*Sevara Qayimova*

*O`zDJTU Xalqaro jurnalistika talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda zamonaviy media haqida tushuncha, tahliliy materiallar qanday tayyorlanishi va tahliliy materiallar tayyorlashda tanqidiy yondashuvning o`rni haqida so`z boradi

**Kalit so`zlar:** Yangi media, an'anaviy media, tahliliy materiallar, tanqidiy fikrlash, mulohaza yuritish, dunyoqarash, argumentlar.

**Аннотация:** В данном тезисе рассматривается концепция современных медиа, способы подготовки аналитических материалов и роль критического мышления при подготовке аналитических материалов.

**Ключевые слова:** Новые медиа, традиционные медиа, аналитические материалы, критическое мышление, рассуждения, мировоззрение, аргументы.

**Abstract.** This article about the concept of modern media, how analytical materials are prepared, and the role of a critical approach in preparing analytical materials.

**Key words:** New media, traditional media, analytical materials, critical thinking, reasoning, worldview, arguments.

## KIRISH

Bugungi kunga kelib insoniyat hayotini internet tarmog`isiz deyarli tasavvur qilib bo`lmaydi. Dunyo aholisi ulkan axborot oqimi girdobida yashaydi. Darhaqiqat, internet dunyo bo`yicha keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Statistik ma`lumotlarga qaraganda 2024-yil dunyo aholisining 5,5 milliarddan ortiq qismi internetdan foydalanishi taxmin qilingan.<sup>1</sup> Unda axborotlar tez tarqaladi, hududiy yangiliklar bilan birga jahonda ro`y berayotgan xabarlarni ham bevosita kuzatish mumkin. Foydalanuvchilar chet elda istiqomat qiluvchilar bilan o`zaro muloqot va hamkorlik qilishlar, global tarmoq orqali online ravishda dunyo kutubxonalaridan foydalana olish imkoniyatiga ham egalar. Hattoki, platformalar orqali o`z bizneslarini yuritish, masofaviy tarzda chet el oliy o`quv yurtlarida ta`lim olish va ishlash kabi qulayliklar yaratilgan.

Zamonaviy medianing asosiy bo`gimi ham cheksiz va tezkor internet hisoblanadi. O`zaro axborot almashinuvi, undagi qulayliklar zamonaviy media

<sup>1</sup> Aniq.uz sayti. "Yil oxirigacha dunyoda internet foydalanuvchilari soni 5,5 milliardga yetadi" maqolasi.

tushunchasi bilan birgalikda fanga raqamli texnologiyalar, multimedia, elektron tizimlashtirish kabi atamalarni olib kirdi. Avvalo, yangi mediani an'anaviy mediadan ajratib olishimiz lozim. Insoniyat talab-ehtiyoji, globallashuv jarayonining o'sishi, cheksiz internet, shuningdek, yangi tarmoqlar yaratilishi natijasida an'anaviy media o'rnini zamovaniy media egalladi. An'anaviy mediaga misol qilib, matbuot, televideniya, radio, gazetalarni aytishimiz mumkin.

Ushbu "yangi media" tushunchasini amerikalik tadqiqotchi Vin Krosbi obrazli qilib kommunikatsiya vositalarini harakatlar muhiti bilan solishtiradi. U yangi makonda paydo bo'lgan yangi mediaga quyidagicha xarakteristika berib o'tgan:<sup>2</sup>

1. Individuallashtirilgan axborotlarni cheksiz aholiga yetkazish imkoniyatlarining mavjudligi;
2. Ishtirokchi kontentiga jalb etilgan barcha iste'molchilarning har biri uning mazmuni ustidan o'zaro nazorat o'rnatganligi.

Shuning bilan birga bugungi kunda media olamida tanqidiy fikrlashning o'rnini bizga sezilarli darajada muhim ahamiyat kasb etmoqda. "Tanqid" so'zi arab tilidan olingan, baho berish maqsadida o'rganish, tahlil qilish va shu asnodagi xulosa degan ma'noni bildiradi. Tanqid so'zi odatda turli sohaalarda turlicha ishlatiladi. Masalan, 1. Ish-harakat, faoliyat, asarning yutuqlarini qayd etish, kamchilik va nuqsonlarini bartaraf etish maqsadidagi muhokama, tahlil. 2. Biror narsaning to'g'ri, haqqoniy ekanini ilmiy tahlil etish, tadqiq etish. 3. Kamchilik, nuqson xatolik va shu kabilarni qayd etish, qoralash, shuningdek, ularni hal etish maqsadida bildirilgan tanbehli fikr-mulohaza.

Media olamida bir kunda ko'plab axborotlar qabul qilinadi va ularni barchasi ham haqiqatga mos kelmaydi. Ularning orasida feyklar, manipulyativ axborotlar, dizinformatsiyalar, shunchaki pr yoki shov-shuv ko'tarish maqsadida uyushtirilganlari ham yo'q emas. Shuningdek, tanqidiy fikrlash dunyoqarashni kengaytirish, ko'proq bilimga ega bo'lish va har qanday jarayonlarni tahlil qilishga yordam beradi.

Odatda inson mediadan foydalanar ekan doimo tanqidiy yondashishi zarur. Matn yaratishda yoki tahlil qilishda quyidagi jihatlariga e'tibor qaratilishi lozim: Matn nima haqida? Undagi asosiy fikrlar qanday? Uning o'ziga jalb qiladigan tomonlari nimada? Berilayotgan axborotning maqsadi nima va ko'zlangan maqsadga erishildimi? Agar yo'q bo'lsa, nima uchun?

Avvalambor tanqid tahlilni nazarda tutadi. Tahlil qilish orqali ko'rib chiqilayotgan hodisa yoki axborotning salbiy va ijobiy tomonlari aniqlanadi. Bu nazariya nafaqat matnlarni tahlil qilish, balki, biror narsa yoki ma'lumotni ma'lum nuqtayi nazardan o'rganishga, intellektual o'sishga, mauammolarning yechimini

<sup>2</sup> Zamonaviy media nazariyalari maqolasi. Akbar Normatovich Nurmatotov. "O'zbekistonda xorijiy tillar" ilmiy-metodik elektron jurnali. № 4/2019

aniqlashga, balki samarali muloqot ko`nikmalarini ham rivojlantirishga yordam beradi.

Tahliliy materiallar tayyorlashda dastlabki qadamlar:

1.

**Yo**

**`naltirilgan mavzuni tanlash:** Sizni qiziqtirgan va tanqidiy tahlil qilish uchun yetarlicha ahamiyatga ega bo`lgan aniq matn, g`oya yoki hodisani tanlash kerak.

2. **Tezis bayonotini tuzish:** mavzu bo`yicha fikr-mulohazalaringizni yozing, asosli taxminlar to`plang.

3. **Puxta tadqiqot o`tkazish:** manbaga asoslangan holda o`xshash jarayonlar, matnlar, ilmiy nazariyalarni ko`rib chiqish lozim.

4. **Konturni yaratish:** To`plangan manbalarni umumlashtiring va shablon bo`yicha joylashtiring. Odatda, bu kirish, asosiy qism va xulosani o`z ichiga oladi.

5. **Matn bilan shug`ullanish:** Tahlililiy materialingizda qo`shtirnoqli iboralar, izohlar va ko`proq aniq misollardan foydalanish uni yanada to`liqroq qiladi.

6. **Qarama-qarshi argumentlarni qo`shish:** qarama-qarshi fikrlar bilan o`z nazariyalaringizni solishtiring. Bu sizning tahlil qilayotgan ishingizni yanada ochib berishi mumkin.

7. **Mulohaza yuritish va xulosa qilish:** fikrlaringizni umumlashtiring va ahamiyatli tomonlarini alohida belgilang. Sizning tahlilingiz muammoni qay darajada yechib berganini xulosa qismida izohlang.

8. **Qayta ko`rib chiqishni unutmang:** tayyor bo`lgan tahliliy materialingizni yana bir bor tahrir qilishni unutmang.

Shu o`rinda yana bir tavsiya, har qanday tahliliy materiallar tayyorlashda har bir manbaga shubha qilishingiz va turli savollar berishingiz lozim. Ma'lumotni bir necha marotaba tekshirish materialingizni yanada ishonchligini ta'minlaydi.

Tahliliy materiallar tayyorlashda tanqidiy fikrlashning ahamiyatli tomonlari nimada ?

Birinchi o`rinda kishida tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Bu o`quvchilarni muhokama qilinayotgan materialni tahlil qilishga undaydi va mavzuni chuqurroq tushunishiga yordam beradi; Yozish ko`nikmalarini rivojlantiradi, ya`ni, tanqidiy materiallar yaratishda g`oyalarni aniq ifodalashni va dalillardan to`g`ri foydalanish mahoratini oshradi; Tushunish va qabul qilish jarayonini yaxshilaydi. Bu jarayon tahlil qiluvchini mavzularni sinchkovlik bilan tekshirishga undaydi. Yuzaki talqinlardan qochib umumiy xulosalashni kuchaytiradi; Tahlil ko`nikmalarini rivojlantiradi. O`quvchilarni argumentlarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga, dalillarni baholashga va mulohaza yuritishini shakllantiradi; Tanqidiy materiallar yozish orqali hosil qilingan ko`nikmalar samarali ilmiy tadqiqotlar yaratishga katta

yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, tanqidiy fikrlashni inson ongiga kichikligidan boshlab rivojlantirib borilishi kerak. Shunda bolalikdan atrof-muhitga boshqacha nazar bilan qaray boshlaydilar. Har qanday axborotni ham to`g`ridan-to`g`ri qabul qilmay, unga to`laqonli ishonmay uni qisqa vaqt ichida tahlil qilishga odatlanishadi. Bora-bora insonda yangi bilimlar, yangi maqsadlar, yangi muvaffaqiyatli rivojlanishlar shakllanadi. Kishi biror murakkab muammolarga duch kelganda ham uni tanqidiy tafakkuri orqali aniq strategiyalarga tayangan holda yechadi. Media olamidani foydalanayotganda ham hushyor tortadi. Har qanday kelib tushayotgan axborotlarni bemalol ajrata oladi. Tanqidiy fikrlash va tahli qilish o`z navbatida yechimlarni samarali topishni, aniq va to`g`ri fikrlashni osonlashtiradi. Har bir misollarning kamchilik va afzalliklarini topishda qo`l keladi. Tanqidiy fikrlash ko`nikmasiga ega bo`lgan inson o`z ijtimoiy materiallarida ham hayotida ham buni qo`llay oladi, yangi g`oyalar izlashdan to`xtamaydi va ko`plab muvaffaqiyatlarga erishishadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. “Zamonaviy media nazariyalari” “O`zbekiston xorijiy tillar” ilmiy-metodik elektron jurnali. № 4/2019 Akbar Normatovich Nurmatov.
2. “What is a critical approach in writing? How can I make the essay critical?” Abhimanyu Sareen.
3. “The foundation of critical thinking” [www.criticalthinking.org](http://www.criticalthinking.org) sayti resurslari.
4. [www.quora.com](http://www.quora.com) sayti resurslari.